



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH USULLARI**

**Yuldoshev Utkirjon Jumaquziyevich.**

*Qo'qon DU Pedagogika kafedrasida dotsenti*

**Tursunova Namuna Abdurashid qizi**

*Qo'qon DU Pedagogika tarixi va nazariyasi mutaxassisligi magistranti*

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqolada mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan asosiy didaktik prinsiplarga e'tibor qaratilgan. Unda ta'lim jarayonida talabning o'zini-o'zi rivojlantirishiga, mustaqil fikrlashiga hamda o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi prinsiplar tahlil etilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida ta'limni shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning samarali usullari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Mustaqil ish, o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish, harakatchanlik, mustaqil ish turlari, didaktik adabiyotlar, sinfdan tashqari ishlar, didaktik maqsad.*

**KIRISH**

Davlat ta'lim standarti talabiga binoan bilimlarni mustaqil ravishda izlanib o'rganish vazifasi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shu sababli fanlarning nazariy asoslarini amaliy ko'nikma darajasida o'zlashtiri bo'lishda mustaqil ta'limning roli beqiyosdir [1, 2]. O'quvchilarga mustaqil ta'limni bajarish yuzasidan fan o'qituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ta'lim turlari - rang-barang va turli elektron ko'rinishlari - fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

O'quvchilar sinf xonalarida o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar. Sinfxonasidan tashqarida o'quvchi darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifasi sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Tadqiqot maqsadi: turli manbalardan foydalangan holda o'quvchilarda mustaqil ta'lim tashkil etish yo'llarini aniqlash va tahlil qilish hisoblanadi.

Mustaqil ish – o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi vositadir.

Mustaqil ish katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. U o'quvchilarda ta'lim jarayonida mustahkam va ongli bilim olishni, mahorat va malakaning shakllanishini, o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanishni, o'zgargan sharoitlarda mahorat va malakalarni qo'llashni, bilim orttirish qobiliyatini (kuzatuvchanlik, harakatchanlik, mantiqiy fikrlash, sinfiy faollik va hokazo) rivojlanishini, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatiga ko'nikishini, kelgusida mustaqil bilim olish bilan samarali shug'ullanishni faollashtiradi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



O'quvchilarning mustaqil ishlarini turli olimlar turlicha talqin qilishadi. Ayrimlar uni o'qitish metodi sifatida qarashsa, ba'zilar o'qitish vositasi, shuningdek o'qitishni tashkil etish shakli sifatida talqin qilishadi. Zero, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faolligidan kelib chiqib uni o'qitish metodi sifatida, o'quv jarayonini tashkil etish nuqtai nazarida o'qitishni tashkil etish shakli ko'rinishida, o'quvchi o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish jihatidan uni o'qitish vositasi sifatida o'rganish mumkin. Mustaqil ishni turli olimlar turlicha talqin qilishar ekan, unga turlicha ta'riflar keltirilgan. Shular ichidan pedagog olim B.P. Esipovning mustaqil ishga bergan ta'rifini kengroq deb qarash mumkin. Ushbu olim mustaqil ishga quyidagicha ta'rif beradi: "O'quvchilarning mustaqil ishi – bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo o'qituvchining topshirig'i bo'yicha bajariladigan mehnatdir. Bunda o'quvchilar o'z kuchini sarflab, u yoki bu shaklda aqliy yoki jismoniy (yoki: birgalikda) harakat natijasini ko'rsatgan holda maqsadga erishishga ongli ravishda intiladilar. Boshlang'ich ta'lim nazariyasida kichik yoshdagi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yuzasidan juda ko'p tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo o'quvchilarning mustaqil ishi tushunchasining maqsadi va mohiyati, uni tashkil etish usuliyotining barcha qirralari ochib berilmagan. Didaktikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning turlari keltirilgan. Bular:

1) didaktik maqsadga ko'ra beriladigan mustaqil ishlar maqsadlar o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirishlariga, yoki malaka va ko'nikmalarni mustahkamlashga o'quvchi bilim, malaka va ko'nikmalarini ko'paytirish va takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Amaliyotda ko'pincha o'qituvchi o'quvchilarning mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan mustaqil ishlaridan ko'p foydalanadilar. Ammo shuni ta'kidlash joizki, yangi materialni o'zlashtirishga qaratilgan mustaqil ishlar o'quvchi ijodkorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Present simple mavzusi sinfda o'qituvchi tomonidan ma'lumotlar berildi va dars so'ngida o'quvchilarga uyga vazifa qilib present simple mavzusiga mustaqil tarzda ma'lumot yig'ib taqdimot tayyorlash uyga vazifa qilib berildi va o'quvchilar mustaqil tarzda bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin. Yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha mustaqil ishlarni shunday tashkil etish va uni nazorat qilish kerakki, mustaqil ishni barcha o'quvchilar faol ishtirok etib bajarishsin, va yangi material barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinsin.

2) o'quvchilar mustaqil ishlayotgan material bo'yicha: darslik bilan, didaktik material bilan, bosma asosli daftar bilan, tarqatma materiallar bilan.

3) o'quvchilardan talab qilinadigan faoliyat xarakteri bo'yicha: Masalan, mazmuniga qarab, yoki biror qoidasini formula bo'yicha beriladigan mustaqil ishlar.

4) O'quvchi o'quv faoliyatini tashkil etish shakli bo'yicha: umumsinf mustaqil ishlar, guruhdagi mustaqil ishlar va yangi tartibdagi mustaqil ishlar.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfan tashqari ishlar nomini olgan. Sinf dan tashqari ishlar



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlarigimuvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim: pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish; ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin: a) fan to'garaklari; b) mohir qo'llar to'garaklari; v) duradgorlik to'garaklari; g) sport to'garagi; d) badiiy havaskorlik to'garagi.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyo qarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish; o'quvchilarning sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish; sinfdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish; umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish; o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish; Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**  
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Sinfdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yoshxususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlari madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi.

### **XULOSA**

O'quvchilarning o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilarda ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga oshiradi. O'quvchi electron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlay oladi. Mustaqil ta'limni tashkil etish orqali, har nomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, izlanuvchan avlodni shakillantiramiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. R. Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. -T., "O'qituvchi", 2002.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организаци спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // вестник науки и образования 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.
3. Хамраев, А. (2018). Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся. Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи, (2), 23-26.